

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

HAMKOR TASHKILOTLAR:

N.I. LOBACHEVSKIY NOMLI
MILLIY TADQIQOT NIJNIY NOVGOROD DAVLAT UNIVERSITETI

N.G.CHERNISHEVSKIY NOMLI
SARATOV MILLIY TADQIQOT DAVLAT UNIVERSITETI

QOZON FEDERAL UNIVERSITETI

ABAY NOMIDAGI QOZOQ MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAKTABGACHA TA‘LIM VAZIRLIGI QOSHIDAGI MAKTABGACHA
TA‘LIM MUASSASALARI RAHBAR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNING
DOLZARB MASALALARI: MUAMMO, YECHIMLAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI**

18-noyabr 2022-yil

KBK: 74.103(5Ў36)
YO‘K: 204.14.752.12

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (18-noyabr 2022-yil): anjuman materiallari to‘plami. – Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti, 2022-yil. – 601 6.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjuman O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi F–101 sonli “2022-yilda xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”ga muvofiq tashkillangan.

Ushbu to‘plamda 2022-yul 18-noyabr kuni Farg‘ona davlat universiteti maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakultetida “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar, rivojlanish istiqbollari” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman yalpi majlis ma‘ruzalari va shu‘balar bo‘yicha maqola va tezislar aks ettirilgan.

Anjuman materiallari O‘zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston olimlari, professor-o‘qituvchilari, doktorant, magistrant, talabalari, maktab o‘qituvchilari, xalq ta‘limi, maktabgacha ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar tomonidan tayyorlangan bo‘lib, ularda raqamli dunyo sharoitida maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlanish, bu boradagi O‘zbekiston va xorijiy ilg‘or tajriba, boshlang‘ich ta‘limda fanlarni o‘qitish uslubiyoti masalalari, PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS tadqiqotlari va ularni amalga oshirish, bolalar nutqini rivojlantirish, ona tili va xorijiy tilni o‘rgatishning pedagogik va psixologik jihatlari, ekologik ta‘lim berish kasbiy kompetentlik, psixologik va jismoniy salomatlik, inklyuziv ta‘lim va boshqa masalalar yoritilgan.

Anjuman materiallari boshlang‘ich va maktabgacha ta‘lim sohalari yo‘nalishida faoliyat yurutuvchi olimlar, pedagog, psixolog talabalar, tadqiqotchi va mutaxassislarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar: **F.R.Qodirova** – Pedagogik ta‘lim xalqaro fanlar Akademiyasi akademigi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi qoshidagi maktabgacha ta‘lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti professori.
R.G.Safarova – pedagogika fanlari doktori, professor, T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti “Uzluksiz ta‘lim pedagogikasi va psixologiyasi” bo‘limi boshlig‘i

ISBN: 978-9943-8823-2-4

To‘plamda nashr etilgan maqola va tezislardagi ma‘lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas‘uldirlar.

Farg‘ona davlat universiteti
2022-yil 18-noyabr

ta'lim nazariyalarining ta'sirini aks ettirish uchun Koreya Ta'limni Rivojlantirish Instituti bolalar bog'chalari o'quv dasturi bo'yicha birinchi intensiv tadqiqotlarni olib bordi.

Barcha rivojlangan davlatlar tajribasida matematik ta'limiy o'yinlar turli-tumanligi bilan farq qiladi. O'yinlar bir birlarini to'ldirishlari, masalan, rolli ishchan o'yini, innovatsion-imitatsion va boshqa hollari bo'lishi mumkin. Bu ko'rinishdagi o'yinlardan, ayniqsa, o'quvchilarni chet tillarga o'rgatishda yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori.

3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari Toshkent-2018

4. Maktabgacha pedagogika. O'quv-uslubiy majmua. Termiz-2018

5. Грошева.И.В. Джанпеисова Г. Э. МикаиловаУ.Т....."O'yin orqali o'qitish"2020-yil

TRIZ PEDAGOGIKASI ASOSIDA O'QUVCHLARNI IJODIY FIKRLASHLAGA O'RGATISH USULLARI

X.K.Qarshiboyeva – ChDPU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'tgan yuz yil va kelajak yuz yil uchun ham o'z qimmatini yo'qotmaydigan, Genrix Saulovich Altshuller asos solgan ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi har bir insonda ixtirochilik qobiliyatini tarbiyalash mumkinligini isbotlay olgani bilan dolzarb bo'lib pedagogika sohasiga ham kirib kelganligi va ushbu nazariyaning mohiyati tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: Ijodiy fikrlash va uni o'stirish, kreativ fikrlash, T-teoriya R-resheniya I-izobretatelskix Z-zadach hayotiy masalalar, nostandart yechimlar.

TRIZ- (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) bu pedagogikaning bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatadigan alohida yo'nalishi. Ko'pchilikda savol tu'g'iladi. TRIZ yana bir yangi modaga chiqqan tekshirilmagan metodikami? Haqiqatdan ham kerakmi, foydalimi? Yoki bolalarni TRIZ bilan shug'ullanish o'rniga bizga tushunarliroq bo'lgan boshqa sohalar bilan shug'ullangani yaxshimi? Matematika bolalarni logik, algoritmik fikrlashlarini o'stiradi. Jismoniy tarbiya esa jismoniy jihatdan rivojlantiradi. Rus tili grammatik va nutqiy qobiliyatlarini o'stiradi. TRIZ esa ijodiy fikrlash malakasini o'stiradi. Ijodiy

fikrlashni nafaqat bolalar xattoki kattalarda ham o‘stirish mumkin. Darhol hayolingizga ijodkorlik bilan bog‘liq haykaltaroshlik, rassomlik, musiqa, raqs she‘riyat kabi narsalar kelishi tabiiy. Aslida unday emas. Haqiqiy ijodkorlik inson har doim qandaydir ishni intruksiya, ya‘ni yo‘riqnomasiz amalga oshirayotganda yuzaga chiqadi. Masalan; bola siz yo‘qligingizda dars stolini o‘zi uchun qulay joylashtirib olganida, yoki boshliq ishchilarni qanday qilib jazolamay qo‘rqitmay ish unumdorligini oshirish yo‘lini hal qilganida, xullas har bir masalaga yechim topganida inson ijodiy fikrlashni amalga oshiradi.

O‘quvchi yaxshi o‘qisa, ota-onasining, ustozining yo‘rig‘idan chiqmasa, maktabni tugatib, oliygohlarga kirib, bitirib, bir ishni boshini tutsa, ishlab nafaqaga chiqsa TRIZ nimaga kerak deb o‘ylashingiz mumkin. To‘g‘ri, 30-40 yil oldin boshqa hech narsa kerakmasdi, odamlar maktabni bitirib, bir ishga kirib, to nafaqagacha bir xil faoliyatni hotirjam bajarib yuraverishardi. Lekin hozir jadal taraqqiy etayotgan bu hayotda ko‘p ishlar robot, avtomatika tomonidan bajarilmoqda. Hozir bir xil ishni bosh qotirmay bajarib yurgan insonlar hech kimga kerakmas. Hozir o‘z ishiga ijodiy yondashadigan, optimal yo‘llarni topa oladigan, shablonlarni o‘zgartira oladigan, tejay oladigan, rivojlantira oladigan, kreativ yechim bera oladigan insonlar qadrlanmoqda.

Demak, oldimizda muhim savol ko‘ndalang bo‘lmoqda; “Qanday qilib bolalarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish mumkin? “Buning uchun bola oldida muammolar, masalalar qo‘yilishi kerakki, ularni intruksiyasiz hal qilish lozim bo‘lsin. Ayni shu yerda bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlari harakatga tushadi. Masalan; kechki payt oilaviy gulhan yonida suhbatlashib, isinib o‘tiribmiz, shu vaqtda kechki ovqat uchun kolbasa qovurish kerak bo‘ldi. Ma‘lumki, kolbasa qovurish uchun olovni o‘chirib lang‘illagan cho‘g‘ holiga keltirish kerak. Olov o‘chsa noqulay, qorong‘i va sovuq bo‘ladi. Masala paydo bo‘ldi; nima qilish kerak olov ham o‘chmasin, kolbasa ham yaxshi qovurilsin? Mana bu hayotiy ijodiy masala. Buni yechishning intruksiya yo‘q. Ortiqcha vaznga ega bo‘lgan odamni yugurishga majburlash qanchalik qiyin bo‘lsa, ijodiy fikrlashi rivojlanmagan odamni ham bunday masalalarni yechishga majburlash shunchalik befoyda. Ijodiy fikrlashga o‘rganmagan bolalar ham boshini qotirishga erinishadi yoki yuzaki yechimlarni taklif qiladi. Masalan: “Ikkita gulxan yoqish kerak”. Mana shu joyda TRIZ pedagogika yordamga keladi. Bolalarni bunday hayotiy masalalarni yechishga majburlashning foydasi yo‘q. Avvalo ularni bunga oddiyroq mashqlar bilan tayyorlash kerak.

Birinchi bosqichda bolalar bilan birga savol berishni o‘rganamiz. Imkoni boricha ko‘proq savollar. Masalan, boyagi gulhan haqida ko‘pdan-ko‘p savollar o‘ylab topish kerak.

1. Gulhan ustini metal banka bilan yopsak, u qancha vaqt yonib tura oladi?

2. Qancha balandlikkacha gulhan 40 gradusdan kam bo‘lmagan issiqlikda yonishi mumkin? Bunday savollarning sanog‘i yo‘q. To‘g‘ri voki noto‘g‘ri javobning o‘zi yo‘q. Turli-tuman yechim variantlari bor, xolos. Bu narsa bolalarni yana va yana o‘ylashga o‘rgatadi. Va o‘z g‘oyalarini bayon qilishga qo‘rqmaydigan bo‘ladi. Natijada asta-sekin ijodiy fikrlashlari rivojlanib boradi. Bunday mashqlar TRIZ pedagogikada juda ko‘p. Ular sekin-asta, kundan-kunga

bolalarda topqirlikni, ijodkorlikni o‘stiradi.

TRIZ bu kreativ, shu bilan birga produktiv fikrlashni o‘stiradi. Ba’zilar doimo kreativ fikrlaydilar, yangidan-yangi takliflar beradi, ammo ularning fikrlari, g‘oyalari oxiriga yetmaydi. TRIZ bilan bu g‘oyalar o‘nlab variantlar o‘yklar ko‘rish hisobiga oxiriga yetadi, natijada ajoyib nostandart ixtirolarga erishish mumkin.

Kreativ fikrlashning asosiy maqsadi ham shu.

Maktablarda yechish instruksiyasi bor masalalar beriladi. Hayotda esa bunday bo‘lmaydi. Hayotiy masalalar yechishda instruksiya yo‘q. Har kim buni o‘z holicha yechadi. An’anaviy ta’lim sistemasida maktablar xuddi fabrika sistemasidek ishlaydi. Chunki bu sistema industriya rivojlangan davrda tashkil topgan. U vaqtda ta’limning maqsadi yosh avlodga madaniyatimizni, an’analarimizni singdirish va zavod-fabrikalar uchun ishchilar tayyorlashga qaratilgan edi. Maktablarda an’anaviy ta’limda o‘quvchilar tayyor ma’lumotlarni faqat tinglashadi yodlashadi va takrorlab aytib berishadi. Bu yerda mantiqiy, tanqidiy fikrlash bo‘ladimi? Albatta yo‘q. Umuman ijodkorlik qilmay turib ham, muammolarga yechimlar topmay turib ham, boshni qotirmay turib ham maktabni a’loga bitirish mumkin. Ta’lim sohasidagi eng katta muammo mana shunda.

TRIZ pedagogika maktab vaqtidayoq hayotni mantiqiy, tanqidiy fikrlash orqali qabul qilishni o‘rgatadi.

XXI asr butunlay o‘zgacha kompetensiyalarni talab qiladi. Chunki biz bolalarimizni o‘zimiz hali bilmaydigan kelajak hayotda yashashga o‘rgatishimiz kerak. Ilgari biz bolalarga adang ham bobong ham hisobchi bo‘lgan, yomon bo‘lishmadi, sen ham hisobchi bo‘lasan derdik. O‘sha zamonga bu to‘g‘ri kelardi. Lekin hozir bunday deyish mumkin emas. Chunki bugungi kunda ba’zi professiyalar massoviy yo‘qolib, yangilari paydo bo‘lmoqda. Masalan 10-15 yildan keyin qanday professiyalar kerak bo‘lishini bila olmaymiz. Demak, bolalar o‘zlari o‘ylashi, o‘zlari muammolarni ko‘ra olishi, nostandart vaziyatlarda nostandart yechimlarni bera olishni bilishlari kerak. Bunday sifatlarsiz yangi dunyoda yashash qiyin, mumkin emas desa ham bo‘ladi. Shuning uchun ham maktab va hayot orasida katta jarlik bor. Ko‘pchilik shu yerda o‘zini yo‘qotib, muammolar girdobida yeniladi. TRIZchilar mana shu jarlikdan o‘tish uchun ko‘prik yasashni maqsad qilgan deyish mumkin.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, TRIZ bilan ishlashda konfliktlar kamayib, motivatsiya oshadi. Har qanday oz‘garishni inson avvalo o‘zidan boshlashi kerak, ya’ni ustozlar o‘zi TRIZga tayyor bo‘lishlari kerak.

Anatoliy Gin va Yevgeniya Ginlar TRIZ bo‘yicha Rossiya bo‘ylab seminarlar o‘tish jarayonida o‘qituvchilardan doimo “Ideal dars qanday bo‘lishi kerak? “degan so‘rovnomaga o‘tkazishgan va ularni umumlashtirib “Приемы педагогической техники” nomli qo‘llanma yaratishdi. Unda dars qanday boshlansa ideal dars talablariga javob beradi, uy vazifasini qanday berish kerakki, unda tanlash erkinligi bo‘lsin, harakat qilish imkoni bo‘lsin bolaga zerikarli bo‘lmasligi uchun, kabi savollarga javob berilgan. Kitobning ikkinchi qismida ixtirochilik kompetensiyalarini uygo‘tish uchun ijodiy va mantiqiy fikrlashni o‘stiradigan mashqlar to‘plami berilgan.

TRIZni ona tili, o'qish, matematika, texnologiya, tasviriy san'at kabi barcha fanlarda samarali qo'llash mumkin.

TRIZda muammoli masalalarni ochiq, maktabdagi masalalarni yopiq masalalar deyish mumkin. Chunki darslikdagi masalalarni o'ylash, analiz qilish emas, sonlarni olib yodlangan formulalarga solish kerak, xolos. Hamma o'quvchi masalani bir xil instruksiya bilan yechadi. Lekin hayotda shunday bo'ladimi? Hamma faqat shu masalaga duch kelmaydiku! Duch keldi ham deylik, hamma har xil yo'l bilan masalaga yechim topadi, o'zicha yondoshadi, har biri muvaffaqiyatli yechimga kelishi mumkin. Chunki hayotda muammoga duch kelsangiz yecim uchun o'nlab variantlar topasiz. Masalan, siz tushlik uchun har kuni ovqatni oldindan tayyorlab qo'yasiz, lekin shu kuni gaz ham tok ham o'chdi. Bu muammo to'g'rimi? Siz bu masalani hal qilish uchun uch, to'rt yoki o'nlab variantlar o'ylab qo'yasiz va hal qilasiz. Ya'ni bu yo'l to'g'ri kelmasa boshqa yo'lni topasiz.

Maktabdagi masalalarda effektilik, tanqidiy, mantiqiy, motivatsiya, kooperatsiya kabi xususiyatlar yetarli emas. Biz ularga yechim uchun yo'l ko'rsatamiz va ularni shunchaki tekshiramiz. Ona yoki o'qituvchi bu yerda kontrolyor, bu bolalarga yoqmaydi. O'qituvchi va o'quvchi, ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarni yomonlashtiradi xolos. TRIZda o'qituvchi va o'quvchi, ona va bola bir tomonda bo'ladi, bir-birlariga hamfikir bo'lishadi g'oyalar berishadi, qo'llab-quvvatlashadi. Bu narsa ikki tomonni bir pozitsiyada birlashtiradi. O'zaro munosabatlarni yaxshilaydi. Maktabda esa hamma bolalarga bir xil masala beriladi va tayyor yechimga keltirilishi talab qilinadi.

Xullas, bu ta'lim sistemasi zamonaviy dunyo talablariga javob berolmaydi. Shuning uchun ham prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev Milliy O'quv Dasturi (MO'D) yaratilishi kerakligini ta'kidlagan edilar. MO'D aynan shu kamchiliklarni yo'qotish va kelajak avlodni XXIasrga tayyorlashga qaratilgan. Mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'qituvchilar MO'D ni qo'llash jarayonida TRIZ pedagogika bilan qurollanishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Найти идею; Введение в ТРИЗ. Г С Алтшуллер
2. И тут появился изобретатель. Г С Алтшуллер
3. You Tube DevEducation kanali. Что такое ТРИЗ?
- 4 You Tube Ксения Несютина Как развивать творческое мышление?

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ИХ РОЛЬ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.

М.А.Кучкарова – преподаватель ФерГУ

Аннотация: Суть интерактивного обучения состоит в том, что учебный процесс организован таким образом, что практически все обучающиеся оказываются вовлеченными в процесс познания, они имеют

Л.Қ.Ғойибова

Мактабгача ёшдаги болаларни илк математик тасаввурларини шакллантиришда ахборот коммуникация технологияларини қўллашга доир иш тажрибасидан 60

Қ.Ю.Яшинова, Ш.Э.Худойназарова

Мактабгача таълим сифати индикаторларини амалиётга жорий этиш мазмуни 62

I.X.Abdullayeva

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uslublari 64

2-SHU'BA

**МАКТАБГАЧА ВА БОШLANG'ICH TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISHDA
O'ZBEKISTON VA XORIJIY ILG'OR TAJRIBA**

D.Yuldasheva, R.O.Babayeva

Мактабгача yoshdagi болаларни milliy qadriyatlar vositasida tarbiyalashda maqollarning o'rni 67

M.E.Xallokova, U.A.Ziyavidinova

Boshlang'ich ta'limni takomillashtirishda xorijiy ilg'or tajribalar (nodavlat ta'lim muassasalari misolida) 69

D.A.Choriyeva, G.N.Ne'matjonova

Мактабгача ta'limda болалар jamoasini shakllantirishda an'analarning ahamiyati..... 71

J.Otajonov, T.Alimova

Jahon mamlakatlari maktabgacha ta'lim tizimida matematika o'qitishning o'ziga xos jihatlari 73

X.K.Qarshiboyeva

TRIZ pedagogikasi asosida o'quvchlarni ijodiy fikrlashlarga o'rgatish usullari..... 75

M.A.Кучкарова

Интерактивные методы обучения и их роль в начальной школе 78

M.M.G'ofurov

Bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashning o'ziga xos jihatlari 81

F.A.Boltayeva

Мактабгача yoshdagi болаларни milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning innovatsion usullari..... 83

Z.Siddikova, A.Tursunboyeva

"Multimedia texnologiyalari asosida "tarbiya " fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish" (boshlang'ich sinflar misolida) 85

R.Abdullayeva

Tarbiyachilarning ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari 87

Д.З.Умарова

Школа и воспитание: проблемы и подходы к их решению 89

Y.O'Egamberdiyeva, Sh.T.Rustamova

Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda xalqaro tadqiqotlar va o'qitishning zamonaviy yondashuvlari..... 92

O.M.Xudoyberdiyeva

Ma'naviy jihatdan tarbiyalashda talaba qizlarni keyslardan foydalanish masalalari 94

Б.Мўминов, Т.Абдужабборов

Иновацион ёндашув – ютуқлар гаровидир 97

S.A.Abduvalieva

An analysis of the finland's preschool education model and the reasons behind its success..... 102

Sh.S.Mamadaliyeva

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini loyihalash faoliyatiga tayyorlashni tadqiq qilishning nazariy asoslari 104

D.A.Ma'murova

Buyuk ajdodlar merosidan болалар tarbiyasida foydalanish ahamiyati..... 106

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH
TA'LIMNING DOLZARB MASALALARI:
MUAMMO, YECHIMLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI

18-noyabr 2022-yil

Texnik muharrir: R.Ahmedov
Muharrir: X.Ismoilov.
Sahifalovchi: A. Poluektova

Bosishga ruxsat etildi: 2022-yil. Nashriyot bosma tabog'i –10,625.
Shartli bosma tabog'i – 5,3125. Bichimi 84x108 1/16.
Adadi 100.

«Poligraf Super Servis» MChJ
Manzil: 150100, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri,
Aviasozlar ko'chasi, 2-uy.